***______________________ hokimligi***

***maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi***

***___________________ maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi***

***__-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi***

***____________________________ning***

***2025-2026-o‘quv yili 3-sinf o‘qish savodxonligi fanidan II chorak uchun***

# DARS ISHLANMALARI

# DIQQAT

Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan OMONAT qilib berildi. Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo'lsa ham OMONAT hisoblanadi. Ushbu OMONATni faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoninggizga ham. Tijoriy maqsadda foydalanmang. Internet va Veb-sayitlarga joylamang. Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

Telegram orqali admin Nabiyev Zokirjon bilan bog'lanish 90-530-68-66 yoki Nza456

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘________ __________________________**

**2025-2026-o‘quv yili 3-sinf o‘qish savodxonligi fanidan II chorak uchun taqvim mavzu rejasi**

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Arazchi svetofor Nasiba Erxonova | 1 | | |
| 2. | Chin do‘st Nasiba Erxonova | 1 | | |
| 3. | Tez yordam yordamga shay Zuhra Ro‘ziyeva | 1 | | |
| 4. | Yo‘l harakati qoida va belgilari(audiomatn)Internet sahifalari | 1 | | |
| 5. | Mehnat qurollari nima deydi? Ne’mat Dushayev | 1 | | |
| 6. | Igna Hakim Nazir | 1 | | |
| 7. | Soat Zahro Hasanova | 1 | | |
| 8. | STO‘ | 1 | | |
| 9. | Bo‘lim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 10. | **Nazorat ishi-4** | 1 | | |
| 11. | Qish tasbehlari Dilshod Rajab | 1 | | |
| 12. | Enajonim ertak aytadi Xudoyberdi To‘xtaboyev | 1 | | |
| 13. | O‘lkamizda qish (audiomatn) | 1 | | |
| 14. | Qish qori bilan Po‘lat Mo‘min | 1 | | |
| 15. | STO‘ | 1 | | |
| 16. | Yaxshilik izlagan bola | 1 | | |
| 17. | Do‘stlik yo‘lagi Rivoyat | 1 | | |
| 18. | Xush kelibsan, Yangi yil Abdulla Oripov | 1 | | |
| 19. | Bo‘lim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 20. | **Nazorat ishi-5** | 1 | | |
| 21. | STO‘ | 1 | | |

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Arazchi svetofor  Nasiba Erxonova**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zni qo'yib,  she’rni o'qing.

Ko‘chamizda  o‘zing  bor  ...,...,

Uchta  chaqmoq  ko‘zing  bor  ...,....



Bolalar yozuvchisi  Nasiba Erxonova  1981 -yilda  Samarqand viloyati  Payariq tumanida ziyoli oilasida tug‘ilgan.  Uning  bolalar uchun yozgan  hikoya,  ertak va  she’riari  respublika gazeta va jurnallarida e ’lon qilingan. Muallifning  “ Matematika qasriga sayohat” ,  “ Ibrat yog‘dusi”  kitoblari chop etilgan.



Arazchi svetofor

Katta bir shahardagi chorrahada uchta svetofor piyodalar va mashinalarning harakatini tartibga solib turarkan. Ular juda ko‘p yillar ko'zlarini ochaverib- yumaverib, charchab ketishibdi. Aksiga olib, chorrahadagi mashinalar kimo'zarga tez yurib, hatto svetofor ustunlarini urib ketaveribdi. Jahli chiqqan piyodalar esa svetoforning buyruqlarini pisand qilmay, qizil chiroqda ham o‘tib ketaveribdilar.Bir kuni uch og'ayni o‘zaro gaplashib, biinday nohaqliklardan charchab ketganlarini aytib, dam olishga qaror qilibdilar.Ertalab odamlar ishga borayotganda svetoforning ko'zlari o‘chib-yonishini kutibdilar, mashinalar bir to‘xtab o‘ta boshlabdi. Lekin svetoforning chiroqlari almashib yonmabdi. Shunda chorrahada tartibsizlik boshlanibdi. Mashinalar va odamlar bir-birlarini kutmay, bir-birlariga yo‘l bermay harakatlanishibdi. Natijada tirbandlik paydo bo‘libdi. Hattoki jahli tez haydovchilar sekinroq yurayotgan mashinalarga borib urilibdi. Atrofiga qaramasdan o'tayotgan piyodalarni esa turtib ketishibdi. Shunda odamlar bunday noqulaylikdan qutulish yollarini izlabdilar. Falokatlarning oldini olish uchun muhandislarni yordamga chaqiribdilar. Texnik ustalar bor mahoratini ishga solib, svetoforlarni sozlabdilar.Yo'lda piyoda va mashinalar yana tartib bilan, bir-birlariga yo‘l bergan holda harakatlana boshlabdi. Shunda hamma svetoforlarga rahmat aytibdi. Ularning yo‘lning bir chekkasida, indamasdan odamlarga uzzukun yordami tegayotganini barcha his qilibdi.




Topishmoqlarning javobini toping.

Yo'lni kesib o'tishda
Yordam berar yo‘l-yo‘l chiziq.
Ustma-ust uchta chiroq,
Ko‘zlariga sergak boq.
Harakatni kuzatar,
Xatolarni tuzatar.
Turli rang-u shaklda,
Turadi yo‘l chetida.
Tartib-qoida mujassam,
Sodiq do‘stdir har joyda.

Buyuk Britaniyaning London shahrida “Svetofor-daraxt” bor. Bu ajoyib daraxt o‘z shoxlaridan 75 ta svetoforga joy bergan. Har bir svetofor mutlaqo bexato ishlaydi, ularning chiroqlari navbati bilan yonib o'chadi. “Svetofordaraxt” shaharning gavjum chorrahalaridan birida joylashgan bo‘lib, haydovchi-yu yo’lovchilarni yo‘l harakati qoidalariga amal qilishga chorlab turadi.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qib, mazmunini so‘zlab bering. Hikoya asosida rasm chizing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Chin do‘st. Nasiba Erxonova**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

Chin do‘st

Nasiba Erxonova

Qadim zamonda emas, biz yashab turgan kunlarning birida o‘zimizning mamlakatda ishlab chiqarilgan mashinalar har tomondan yo‘lga tushishibdi. Yurtning turli chetlaridan manzil tomon oshiqayotgan mashinalari taqdir taqozosi bilan bir yo'lda uchrashib, oldinma-ketin ketaverishibdi. Bir payt mashinalar dam olish uchun bir daraxt tagida to‘xtashibdi. Shunda uch ulov bahs boylashib qolibdi:- Men ikkovingdan ham kuchliman, - debdi qolganlariga nisbatan kattaroq ulov. -To g 'd a, qorda, shaharda - hamma joyda qiynalmasdan yuraman. Qaddim baland, hurmatim, obro‘-e’tiborim ham hammangiznikidan yuqori, - d e y a kerilibdi.Buni zimdan kuzatgan bejirim uzungina ulov ko'zlarini suzib:- Hammadan chiroyli ekanimni bilib turibsizlar-u, tan olgingiz kelmaydi-da. Aslida hamma mashinalarning - menga havasi keladi, - debdi. Oliftagarchilik qilgan ulovning oxirgi gaplarini safdoshlari eshitmabdi ham.Uchinchi ulov esa indamabdi. “Kimning qanaqaligini vaqt ko‘rsatadi” , - deya jimgina yo‘lga tushibdi.Uchala mashina yana yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bu orada mag‘rur katta ulovning yoqilg‘isi kamayib qolibdi. Bundan g‘azablangan ulov to'xtab- to‘xtab yura boshlabdi. Bejirim uzungina ulov esa ajab bo‘libdi degandek, labini burgancha o‘tib ketibdi. Uchinchi ulovning esa ko‘z oldiga o‘zidan oldin ishlab chiqarilgan ulovlar kelibdi. Ular doimo hammaga yaxshilik qilish kerak, deya uqtirisharkan. Shunda u o‘zining zaxirasidagi yoqilg‘isini Katta ulovga quyibdi.U bolsa barcha aytgan gaplaridan pushaymonligini yashirmabdi.Ular yana yo‘lga tushibdilar. Tez-tez oynalarini yuvishni, tozalikni yaxshi ko'radigan

bejirim ulovning suvi tugab qolibdi. Biroq g'ashi kelsa-da, mashinalardan yordam so‘rashdan ko‘ra kir yuzi bilan ketaverishni afzal bilibdi. Uchinchi ulov dilni og'rituvchi gaplarini unutib, unga suv beribdi. Bundan xursand bo‘lgan ulov tezda yuzlarini yuvib, yana chiroyini ko‘z- ko‘z qilibdi. Shunda Katta ulov qattiq signal chalibdi hamda uchinchi mashinani oldiga chiqib shunday debdi:- Do‘stim, bizni kechir, aslida ichimizda eng kuchli, kamtar va mehriboni sensan. Ikkinchi mashina ham boshini egib:- Dilingni og‘ritgan bo'lsak kechir, - debdi g‘ururini bir chetga surib.Kamtar, mehribon mashina maqtovdan havolanmay, yo'lida davom etibdi.

Berilgan iboralarni partadoshingiz bilan muhokama qiling. Ular ishtirokida bittadan gap tuzing.




Maqollar orasidan hikoya mazmuniga mosini toping.




Odamlar qadimdan ot qo’shmasdan o‘zi yuradigan arava yasashni orzu qilishgan.Buning uchun ular nimalar o’ylab topishmadi deysiz. So’ngra «avtomobil» (yunoncha so‘z bo’lib, o’zbekchada «o‘zi yuruvchi» ma’nosini anglatadi) deb ataluvchi g’aroyib qurilmani ixtiro qilishdii.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o'qib, mazmunini so'zlab bering. Ota-onangiz yordamida O’zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar haqida ma’lumot to'plang

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Tez yordam - yordamga shay. Zuhra Ro'ziyeva**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

So'zlarni o'qing. Har bir ustundagi so'zlardan foydalanib, so'z birikmasi tuzing va ma'nosini tushuntiring.




Tez yordam - yordamga shay

Zuhra Ro'ziyeva

Oqshom. Boburjonga oyisi yangi ertak aytib berarkan, uning qo'ng'iroq sochlarini silab-silab qo'yardi. Xonada oyisining mayin ovozi eshitilar, ertaklarning qiziqligidan hatto tunchiroq ham uni berilib tinglayotganga o'xshardi. Shu payt to'satdan allaqanday mashinaning baland signali eshitildi-

yu, hammani cho‘chitib yubordi.- Oyijon, bu nimaning ovozi? - Hozir, oppog‘im... - oyisi o‘rnidan turib, derazadan qaradi-yu, “Tinchlik bo‘lsin-da” , - deb qo‘ydi. Bu tez tibbiy yordam mashinasining signal ovozi edi. U bemorlarga tez tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun ketayotganida signal chalardi, atrofdagi mashinalar esa unga yo‘l berishlari kerak bo‘ladi. Kim bilsin, balki bu mashina ichida hozir bemor qariya yoki kasal bola bordir. - U mashinada yana kimlar bo‘ladi? - Boburjonning savol xaltasi ochilib ketdi.- Mashinada shifokor, uning yordamchisi va haydovchi bo‘ladi. Agar ularga chaqiruv bo‘lsa, darrov yetib borib, bemorlarga yordam ko‘rsatishadi. - Shifokorlardan juda ham qo‘rqaman. Nimaga ularning xalatlari oq bo‘ladi? - Oq xalat tozalik va soflik belgisidir. Ular doimo oq ko‘ngil va ochiq yuz bilan bemorlarni davolaydilar. Oq rang ishonch belgisi ham sanaladi.- Agar kechki payt - tez tibbiy yordamdagilar uyiga ketib qolganda chaqiruv bo‘lsa, nima bo'ladi?- Tez tibbiy yordamda ishlaydiganlar kecha-yu kunduz tinim bilishmaydi. 24 soat mobaynida bemorlarga xizmat ko'rsatishadi. Shuning uchun ham tez tibbiy yordam deb ataladi. Zarurat tug‘ilsa, ular bemorlarni shifoxonaga olib borishadi. - Unda tez tibbiy yordamda ishlovchilar qachon dam olishadi?'- Ular navbatma-navbat dam olishadi. Axir, kunning istalgan vaqtida bemorlarning toblari bo'lmay qolsa, ularga yordam ko'rsatish kerak-ku. Boburjon bu suhbatdan so‘ng tez tibbiy yordamda ishlaydigan shifokorlarga ichida rahmat aytdi.U insonlarga yordam berish ishtiyoqi bilan yashash qanchalar maroqli ekanini his qildi.

Hikoyadan shifokorlar hamda tez tibbiy yordam haqida bildirilgan fikrni topib o'qing.Izohli lug'atdan berilgan so'zlarning ma’nosini topib o‘qing: *ishtiyoq, maroqli, tob, mobaynida.*

Bilasizmi, xuddi odamlarga o‘xshab,avtomobillarning ham kasblari bor. Ularning ichida o‘t o‘chiruvchi va sanitarian ham, yuk tashuvchi va ko‘cha supuruvchilari, harbiy va soqchi, jangchi va sportchilari ham bor. Ba’zilari ulkanligi va bahodirona kuchi bilan kishini hayratga soladi.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qing. Oila a’zolaringiz bilan birgalikda o zingizga yoqqan transport turi haqida kichik hikoya tuzing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sana:** | | | | |
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Yo‘l harakati qoidalariga amal qiling**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Har bir rasmga mos sarlavha toping



Yo‘l harakati qoidalari
va belgilariga amal qiling!



She’mi o'qing.  Unda qanday qoidalar haqida gap
ketyapti? Fikringizni izohlang.

Yo‘lni  kesish joyida
Shunday bo‘lar qoida.
Doim amal  qil  bunga,
Ko‘rasan faqat foyda.

Chalg'imay sira gapga,
Qaramoq  kerak chapga.
Angraymay oldga,  so'ngga,
So‘ng qarash  kerak o‘ngga.

Shoshmay tursin shoshqaloq,
Otmay tursin shataloq.
Yonganda yashil chiroq,
Yo‘ldan o‘ta qol tezroq.



Berilgan gaplar orasidan audio matnda keltirilgan gapni aniqlang.

1.  Maktabga  borish va kelishda o‘rganib chiqilgan  “Uy - maktab - uy” yo nalishi  orqali harakatlaning.
2. Oromgohlarga  borganda  ham ovqatlanish  qoidalariga to‘liq  rioya qiling.
3.  Yo'lni faqat yerosti va yerusti o‘tish joylaridan  hamda “Piyodalar o'tish joyi” belgisi  mavjud joylardan  kesib o‘ting.
4.  Farovon va soglom yashashimiz uchun albatta  ma’lum qoidalarga amal qilishimiz,  mas’uliyatli bo'lishimiz zarur.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Audiomatnda berilgan qojdalarni oila a’zolaringizga so'zlab bering. Ulardan yana qanday qoidalar bor ekanligini so‘rab,  bilib oling. Maktabdan uyingizgacha bolgan yo'ldagi yo‘l belgilariga e’tibor bering va ulardan uchtasining rasmini chizing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Mehnat qurollari nima deydi? Ne'mat Dushayev**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**



Ne'mat Dushayev 1963-yilda Toshkent viloyati Angren shahrida tug'ilgan. "Saxiy xayolparast" , "Sehrli tayoqcha", "G'alati bo'taloq", "Kim zo'r?", "Ular dovon yo'lini qurgan edilar", "Gurumdagi gurunglar" she'riy va nasriy kitoblari chop etilgan. 2005-yildan 0 'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Mehnat qurollari nima deydi?

Ne'mat Dushayev

Bolg'a

Dangasa demang meni,
Men har ishda chaqqonman.
Bultur bir qop yong'oqni
Bitta o'zim chaqqanman.
Bir qop yong'oqqa, ehhe,
Qancha odam to'yrnoqda.
Mix deysizmi, bolg'avoy
O'zi qoqib qo'ymoqda.

Mehnat qurollari nima deydi?

Ne'mat Dushayev

Ombur
Xato qilsa bolg'avoy,
Darrovda tuzataman.
Qiyshiq mixni sug'urib,
To'g'rilab uzataman.
Ikki jag'im - boyligim,
Ish ko'p, ulgurish kerak.
Yordamlashib yuboring
Mixni sug'irish kerak

Panshaxi
Xashak o'psa o'roqvoy,
Yig'ib, grram qilaman.
Bupdan tashqari sabzi
Qazishniyam bilaman.
Uy-ro'zg'orga qarashib,
Yoz-u qish ishim "besh"-da.
Buyog'in so'rasangiz,
Barmoqlarim ham beshta.

Arra
Shoxmi, daraxt yo taxta
Shart-shurt arralagayman.
Hushyor bo'ling, qo'lingiz
Yo'qsa, yaralagayman.
Usta duradgor bilan
Hali ko'pdir ishlarim.
Tishlarimmi, temirdan
Og'rimaydi tishlarim.

Mehnat qurollari nima deydi?

Dangasa demang uni,
Men har ishda chaqqanman.
Bultur bir qop yong'oqni
Bitta o'zim chaqqonman.
Ikki tishim - boyligim,
Ish ko'p, ulgurish kerak.
Yordamlashib yubordim,
Mixni sudurash kerak.

Shoxmi, daraxt yo paxta
Shart-shurt arralagayman
Hushyor bo'ling, qo'lingiz
Yo'qsa, yamalagayman.
Xashak o'rsa o'rtoqvoy,
Yig'ib, g'aram qilaman.
Bundan tashqari sabzi
Qazishniyam bilmayman

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O'quvchilarni rag'batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Biror ish qurolini tanlab oling. Uni insonlarga qanday xizmat qilishi hamda qaysi mushkullarini oson qilishi haqida yozing.

**O'IBDO':** ______________________ ______________ ____________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Igna. Hakim Nazar**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqning javobini toping.

Bir ko‘zli kampir,
Ko'ylakka gul tikar.

O’zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir 1915-yil 15-oktabrda Toshkentda tavallud topgan. Kattalar va bolalar uchun yozgan ellikdan ziyod kitoblari chop etilgan. Ularda odob-axloq, odamiylik, do'stlik, mehnatga muhabbat va vatanparvarlik haqida so‘z boradi.





Igna

- Buvi, opam tomoshaga oboradilar. Ko‘ylagimga tugmacha qadab bering, - dedi Sora.- Hozir bolam, - dedi buvisi, - nonim kuyib ketmasin.Sora shkafdan yangi tikilgan qizil shoyi ko‘ylagini oldi.Keyin buvisining ishpechidan ignani olib, ko'ylagiga tugmacha qadashga kirishdi. U ipni ignaga bir amallab o‘tqazdi-yu, uyog'iga qiynalib qoldi. Dam ignasi qo'lidan tushib ketadi, dam tugmacha sirg'alib tushadi. lya, ana bir narsa chirs etib ketdi. Mundoq qarasa, igna sinib qolibdi. Shoshfb-pishib igna-iplarni joyiga qo‘ydi-yu, yana “buvi”lab chaqira boshladi.- Mana, boryapman! - deganicha kampir bir savat issiq non ko‘tarib uyga kirdi. So‘ng ishpechi bilan shoyi ko‘ylakchaning oldiga o‘tirdi.Keyin ignani qo‘liga ushlab ko'rsaki, siniq. Kampir gilam ustini timirskilay boshlagan edi, Sora shoshganidan:- Qidirmang, buvi! Olib tashlaganman, - deb qo‘ydi. - Boshqasi yo‘qmi?

- Boshqasi bor-u, ko‘rpa qaviq igna edi-da. Tugmachangga o‘tmaydi. Darrov borib opoqingning ignasini olib chiqa qol, qizim! Buviginasi darrov tugmachani chatib berdi. Sora bog‘chaga borsaki, bolalar hozirgina tomoshaga ketishgan edi. Sora qovog‘ini solib, labini osiltirib uyiga qaytdi.- Qo‘y, xafa bo‘lma, qizim! - dedi buvisi uni bag‘riga bosib. - Igna sinmaganda, kechikmasding. Endigi safar vaqtida borasan.

ishpech - tikuvchining ip, igna va boshqa kerakli narsalari saqlanadigan xaltasi

Bilasizmi, qadimda ignalar toshlardan hayvonlarning suyaklaridan yoki shoxlaridan yasalgan. Taxminlarga ko‘ra, ilk po‘lat igna Xitoyda yasalgan. Qaychilar esa 3000 yil oldin deyarli bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlarda ixtiro qilingan.

Harflarni chiziq bo‘ylab ketma-ket o‘qing va hosil bolgan gap mazmunini izohlang.





| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4 | sh | i | ch | q |
| 3 | t | a | y | u |
| 2 | g | n | r | o |
| 1 | l | v | m | s |
| | A | B | C | D |



1. B4, A2, B2, B3
2. B3, B2, A2, B4, A4, B1, D2, B2, B3
3. B3, C2, C2, B3
4. D4, B3, C3, C4, B4
5. A3, D3, A2, C1, B3

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyani o‘qing va mazmunini so’zlab bering. Ish qurollari haqida topishmoqlar topib, yod oling.

**O‘IBDO‘:** ________________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Soat . Zahro Hasanova**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqning javobini toping.
Kun-u tun yuradi,
Doim bir joyda turadi.
Dunyodagi eng qadrli narsa nima?
Soat nima uchun kerak?




Soat

Erkin ertalab tursa,
Soat qolibdi to‘xtab.
Chiq-chiq degan sozini
Chalmay qolibdi uxlab.
Ustasiga yugurdi,
Olib uni qo'liga.
Dedi: - Davosin topib,
Solib bering yo'liga.

Batareyka o‘rnatdi
Usta aka “shifokor”.
- Qorni ochibdi-ku, - deb,
Dardin topibdi tezkor.
Endi har tong soat
Jiringlab uyg‘ otadi
Erkinjonni o‘qishga
Kuy chalib kuzatadi.

1. Soat millari chapdan o‘ngga harakat qiladi, chunki soya quyosh soati bilan shunday harakatlanadi.
2. Shveytsariya soatsozlikning vatani hisoblanadi.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni yod oling. Zamonaviy soat turlari haqida ma’lumot to‘plab, ularni qadimgi soat turlari bilan taqqoslang.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

## 8- dars STO’

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Bo'lim yuzasidan takrorlash**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

1. Bo'limdagi qaysi hikoyada nohaqlikdan charchagan uch og'ayni arazladi?
2. Ish qurollari haqida yozilgan she'r muallifi kim?
3. Qaysi hikoyada kamtarlik, yaqinlarga yordamberish kabi ijobiy xislatlar haqida so'z boradi?

Nuqtalar o'rniga she'r mazmuniga mos so'zlarni qo'ying.

Shoxmi, daraxt yo taxta
Shart-shurt...
Hushyor bo'ling, qo'lingiz
Yo'qsa, ...
Usta duradgor bilan
Hali k o 'p d ir...
Tishlarimmi, temirdan
Og'rimaydi ...

*Foydalanish uchun so'zlar:tishlarim, arralagayman, ishlarim, yaralagayman.*

Rasm asosida yo’llarda yurish qoidalariga haqida kichik matn tuzing va so’zlab bering.











**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Siz qaysi kasb va hunar egasi bo’lmoqchisiz? Fikringizni yozam bayon qiling.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-4**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**1-topshiriq — Matnni diqqat bilan o'qib chiqing va savollarga javob bering:**

**Matn:** *Kechqurun Oysha uyga qaytdi. U yo'l bo'yida yonib turgan lampochalarni ko'rib to'xtadi. Lampochalar nur sochib, qorong'uni yoritardi. Oysha uyga kirib, ota-onasiga bugun ko'rganlari haqida hikoya qilib berdi. U yaxshi dam oldi va ertasi kuni yana bog'ga borishni rejalashtirdi.*

**Savollar**

**1) Matnda nechta gap bor?**

Javob: ____________

**2) Quyidagi gaplardan to'g'ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:**

A) Oysha bog'ga borishni rejalashtirdi.

B) Lampochalar nur sochdi.

C) Oysha uyga qaytdi.

D) Oysha ota-onasiga hikoya qildi.

Javob: ____________

**3) Quyidagi so'zlardan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lganini belgilang:**

a) kechqurun — ___________
b) qorong‘u — ___________
c) reja — ___________
Variantlar: rejalar, rejim, rejadan
**Javob:**
a) ___ b) ___ c) ___
**4-topshiriq — Matn asosida qisqacha yozing:**
*Matn kim haqida va u nima qildi?* (2–3 satr)

---

---

---

**5-topshiriq — So‘z boyligini kengaytirish**

1. **“Nur” so‘zining ma’nosiga yaqin bo‘lgan so‘zni yozing:** ___________
2. **“Kechqurun” so‘zidan yangi so‘z yasang:** ___________

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Siz qaysi kasb va hunar egasi bo’lmoqchisiz? Fikringizni yozam bayon qiling.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
(imzo) (sana)

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Qish tashbehlari. Dilshod Rajab**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**oʻquchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, toʻgʻri, ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish, lugʻat boyligini oshirish, oʻzbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali ogʻzaki nutqini oʻstirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urugʻlarini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni oʻrgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**oʻquvchilarning mavzuga oid bilim, koʻnikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali oʻquvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma oʻzi uchun.

**Nazorat:** oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Boʻlimlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | Oʻtgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yoʻqlama qilish, oʻquvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.** oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili oʻtkazilib noʻtoʻgʻri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan koʻrsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Berilgan so'zlar orasidan qish fasliga moslarini tanlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qor, sovuq, gullar, chiroyli, issiq, yaxmalak, qaldirgʻoch, kamalak, Yangi yil, qorparcha, chana, jazirama, muz, oppoq, yam-yashil, qahraton.





Dilshod Rajab 1964-yilning 7-dekabrida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan. Dilshod Rajab “Otamning bog‘i” , “ Daryo ko'ngil” , “Jilvon o‘g‘loni” , “Alifbo”, “Tanish tovushlar” , “Sukut sarhadi”, O’n o‘rtoq” , “ Hamro polvon” , “Poyezdning bolasi” , “ Baxshi bola - yaxshi bola” kabi she’riy kitoblar muallifidir.

Qish tashbehlari

Dilshod Rajab

Qor kiyingan archalar
Oq qalpoqqa o’shaydi.
Yaltiroq shox-shabbalar
Jez taroqqa o'xshaydi.
Muz qofejan ariqchalar
Zar belbog‘ga o‘xshaydi.
Sumalaklar - qandillar
Muz chiroqqa o‘xshaydi.

Qor ustida qarg'alar
Qora dog‘ga o‘xshaydi.
Yo oq qog‘ozga tomgan
Rang - siyohga o‘xshaydi.
Fe’li sovuq izg'irin
Ko‘p chatoqqa o‘xshaydi.
Quvib solar hammani,
“ Ur, to‘qmoq”qa o‘xshaydi.

jez - mis va ruhdan iborat qotishma
tashbeh - o'xshatish



She’rda berilgan o‘xshatishlarni aniqlang.Siz bu narsalarni nimalarga o'xshatgan bo‘lardingiz?
Qarg‘alar tasvirlangan bandni topib o‘qing. Siz qarg'alarni qanday ta’riflagan bo'lar edingiz?
Sumalaklar- qandillar Muz chiroqqa o ‘xshaydi.
Berilgan misrani izohlang. Bu o'rinda sumalak qanday ma’noda qo'llangan? Yana qanday sumalak haqida bilasiz?
She’riy o‘xshatishlardan gaplar tuzib, matn hosil qiling.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali o'qing va yod oling. Qish faslida ro‘y beradigan yana qanday tabiat hodisaiarini bilasiz? Bu hodisalarni nimaga o‘xshatish mumkin?

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Enajonim ertak aytdi. Xudoyberdi To'xtaboyev**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Xudoyberdi To'xtaboyev - bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston xalq yozuvchisi. Xudoyberdi To'xtaboyev 1932- yil 17- dekabrda Farg'ona viloyatida dunyoga kelgan adibning "Omonboy va Davronboy", "Sariq devni minibV "Yillar va yo'llar" , "Besh bolali yigitcha" , "Qasoskornihg oltin boshi", "Sehrgarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida" , "Jannati odamlar" kabi kitoblari chop etilgan.



Enajonim ertak aytadi
("Jannati odamlar" romanidan parcha)

Xudoyberdi To'xtaboyev

Enajonim har gal ertak boshlashidan oldin bir nafasgina ko'zlarini yumgan ko'yi jim bo'lib qolardi. Bu gal ham shunday qildi. Eslab olsa kerak-da.- Qadim-qadim zamonda, - deb gap boshladi keyin. - Shu o'zimizning Farg'ona tomonda ajoyib inson yashagan ekan. Xushfe'l, xushxulq, bobojoningga o'xshab yaxshi bog'bon, saxiy, saxovatli, yana yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga ko'p mehribon ham bo'lgan ekan. Uning 4 nafar farzandi bor ekan. Har o'g'illar ekanki, ularga tojdor podsholarning ham havasi kelarkan.- Enajon, katta bo'lsam, men ham o'sha yigitlardaqa bo'lamanmi? - deb so'radim. -Albatta , bo'lasan. Gap qo'shmay tur-da, o'g'lim, adashib ketaman. Cholning to'rt o'g 'li ham otalari kabi saxiy, saxovatli, mehnatkash bo'lgan ekan. Ular har kuni o'rinlariga yotganda bizga

shunday fazilat ato qilginki, butun olamdagi odamlarga yaxshilik qilaylik, bu yaxshilik hech ado bo'lmasin, deb iltijo qilisharkan. Xudo ularning iltijosini bajo qilibdi va har tyriga alohida sehr ato etibdi. Duo o'qishsa, katta o‘g‘il qorga, ikkinchi o‘g‘il yomg'irga, uchinchi o‘g‘il shamolga, to'rtinchi o‘g‘il quyoshga aylanib qolar, yana duo o‘qishsa, o‘z hollari- ga qaytishar ekan. Qish kelsa-yu, qoryog'masa, yomon bo‘larkan. Odamlar Xudodan qor so‘rab, u yoq-bu yoqqa qolisharkan. Shunda katta o‘gil bilgan duosini Butun olamga goh shakarqor, goh laylakqor boshlarkan. Bolalar sevinishib:



Qor yog ‘ar, qor yog‘ar,
Dalalarga don yog‘ar.
Qor yog ‘ar, qor yog‘ar,
Uyimizga non yog‘ar, -deb ashula aytisharkan. Negaki, qor ko‘p yog'sa, qirlarda bug‘doy yaxshi unarkan. Daryolarda suv ko‘payarkan. Qurt- qumursqalar qorning ostiga kirib, sovuqdan jon saqlar ekanl lliq bahor kelgach, qorlar erib bitar, yerlar quruqshab qolarkan.|Giyohlar qatqaloq yerni yorib chiqolmay qiynalarkan. Daraxtlardagi kurtaklar ozgina namlik bo‘lsaydi, deya osmonga tikilarkan. Shunda ikkinchi o‘g‘il duo o‘qirkan. Shovullab iliqqina yomg'ir yog‘a boshlarkan. Bolalar yugurishib ko'chaga chiqib, do'ppilarini osmonga otib: Yomg‘ir yog‘aloq, echki chaqaloq,Yomg‘ir yog‘aloq, unsa tuvaloq, Bargi shapaloq, -deb she’rlar to‘qishar, ashulalar aytisharkan. Ana undan keyin olam yashnab, yasharib ketarkan. Kurtaklar oppoq-oppoq gul ocharkan, qirlarda yam- yashil maysalar gurkirarkan. Qip-qizil lolalar adirlarga gilam yoyarkan.Bu bolalar hozir ham hayot ekan. Ular dunyoni kezib yurisharkan. Qor so'raganga qor, yomg'ir so‘raganga yomg'ir yog'dirib berisharkan. Enajonim ertakni tugatib, deraza tomonga tikilgancha jim bo‘lib qoldi. Men ham o‘sha tomonga tikilib ancha mahal jim turdim.

Ertak matnidan Farg'ona tomonda yashagan yaxshi insonga berilgan ta’rifni topib o‘qing.Ertakdagi qor va yomg'ir haqidagi ashulani topib o‘qing. Qor va yomg'ir haqida yana qanday qo'shiqlarni bilasiz? Ertakda berilgan yomg‘ir haqidagi she’rdan qofiyadosh so'zlarni toping.



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali o’qing va yod oling. Qish faslida ro’y beradigan yana qanday tabiat hodisalarini bilasiz? Bu hodisalarga o‘xshatish toping

**O‘IBDO‘:** ____________________ ____________ ____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: O'lkamizda qish**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**oʻquchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, toʻgʻri, ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish, lugʻat boyligini oshirish, oʻzbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali ogʻzaki nutqini oʻstirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urugʻlarini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni oʻrgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**oʻquvchilarning mavzuga oid bilim, koʻnikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali oʻquvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma oʻzi uchun.

**Nazorat:** oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Boʻlimlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | Oʻtgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yoʻqlama qilish, oʻquvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.** oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili oʻtkazilib noʻtoʻgʻri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan koʻrsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqning javobini toping.

Oppoqqina dasturxon
Yer yuzini qoplagan.
Ariqdan oyna oldim

Rasmlarga diqqat bilan qarang va ular asosida reja tuzing.

Reja asosida tuzgan matningizni hikoya qilib bering. “To'satdan koʻkdagi par koʻrpa qoqildi-yu, bir-biriga o ‘xshamaydigan qorparchalar maydamaydalab yogʻa boshladi”. Matnda berilgan ushbu o'xshatishni izohlang.





**“O‘lkamizda qish” audiomatinidagi gaplar  ketma-ketligini aniqlab,  matn  hosil qiling.**

• Qishda hamma yoq oppoq qor bilan qoplanadi.  Havo musaffo, yoqimli  bo'ladi.  Kishi qancha nafas olsa ham to ‘y m a y d i.  Qish tongi  kishiga o'zgacha huzur bag‘ishlaydi.

• Qorlar mayda zarralardek turli-tuman rangda yaltiraydi.  Daraxtlar oq  kiyimga  burkanib, xuddi xayol surib turganday tuyuladi.

• Tashqarida sovuq.  Hamma issiq sharflarga o'ralib, quloqlarini qalpoqlari ostiga,  qollarini qo'lqopga yashiradilar.  Faqat burun va yonoqlami  hech qanday tarzda sovuqdan  himoya qilish  uchun berkitib bo‘lmaydi.

• Bolalar shunday quvnoq ediki,  ularga juda-juda havasim  keldi. To'satdan  ko'kdagi  par ko'rpa qoqildi-yu,  bir-biriga o'xshamaydigan qorparchalar mayda- maydalab yog'a boshladi.

• Bu faslda bolalar turli o'yinlar o'ynab quvonadilar.  Mana, bolalar o'yingohi.  U yer bolalar bilan gavjum.  Ular  o'yingohda beg‘ubor bolalik hislari  bilan quvnab o‘ynaydilar.  Bu  holatni  ko'rib zavqlanib ketasan.

• Ikki  bola qorbobo yasab, uning  boshiga chelak kiydirishadi. Yana biri tepalikdan chanada sirpanib tushar, bir to‘p bolalar esa bir-birlari bilan qorbo'ron o'ynashar edi.  Ko‘cha sovuq  bolishiga qaramay, ular miriqib o‘ynashmoqda.

• Qish ko'pincha sovuq shamollar va yomg'irli  kunlar bilan boshlanadi.  Barglari to'kilgan daraxtlar chuqur uyquga  ketadi.

Hosil  bo‘lgan matnni qayta o‘qing.



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Matn asosida rasm chizing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Qish  qori  bilan. Po’lat Mo’min**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Topishmoqning javobini toping.

Qish chog'i  kapalaklar
Uchib yurar osmonda.
Qiziq,  yo‘qolib qolar,
Kaftimga qo'ngan onda.

Topishmoqning javobini topishda qaysi so‘zlar sizga yordam  berdi? Berilgan rasmlar orasidan shoir Po'lat Mo‘minning suratini aniqlang.



Qish qori bilan

Po‘lat Mo‘min

Qish uchun viqor
Oppoqqina qor.
Havo top-toza,
Oh, qanday soz-a
Qor uchqunlari -
Osmon unlari.
Sochilar asta,
Boqdim havasda.
Kengliklar ko‘rkam,
Go‘yo oq ko‘klam.
Qarang husniga:
Yerning ustiga -
Choyshab yoyilgan,
Rosa qoyilman.
Qishning oqligi,
Qor yumshoqligi.
Bolakaylarning
Sho‘x-quvnoqligi.
Yoqqandan yoqar,
Dilga o‘t yoqar.
Bolalar g‘ujg‘on,
O‘ynar qorbo‘ron.
Bo‘sh yotgan chana
G'izillar yana.
Qayda sirpanchiq,
Bolajonlar liq.
Qish nomi asli
Oppoqlik fasli.
Badan chiniqar,
Fikr tiniqar.
Ey, yoqimtoy qish,
Qoringga olqish.
Sog‘intirgan qor,
Keltirgay bahor.

viqor - mag'rurona va ulug‘vor ko'rinish, salobat
g‘ujg‘on - to ‘da, to‘p holatda




Qish faslida tevarak-atrof oppoq qor bilan qoplanadi. Biz qorga qarab zavqlanamiz, maza qilib o‘ynaymiz. Siz qor parchalari qanday bo‘lishi haqida hech o‘ylab ko‘rdanmisiz? Qor parchalari juda ham ajoyib... qor nafaqat oq rangda, balki qizil, yashil va hattoki qora rangda ham bo‘lishi mumkin ekan. Sababi qor parchalari yerga tushayotganda havodagi mayda bakteriya va changlarni singdirib, tusini o‘zgartiradi.Ammo rangdor qor parchalarini biz faqatgina mikroskop yordamida ko‘rishimiz mumkin. Qor parchalar bir-biriga jipslashganda esa ko‘zimizga oq rangda ko‘rinadi.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi.
O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali o'qing. Qog‘ozdan turli qor parchalarini yasang.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

**15- dars STO’**

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Yaxshilik izlagan bola**

**Maqsadlar:**

**a) ta'limiy maqsad-**oʻquchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, toʻgʻri, ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish, lugʻat boyligini oshirish, oʻzbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali ogʻzaki nutqini oʻstirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urugʻlarini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni oʻrgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**oʻquvchilarning mavzuga oid bilim, koʻnikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali oʻquvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma oʻzi uchun.

**Nazorat:** oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Boʻlimlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | Oʻtgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yoʻqlama qilish, oʻquvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.** oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili oʻtkazilib noʻtoʻgʻri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan koʻrsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Rasmni izohlang. Oʻylab koʻring, qish faslida jonivorlarga qanday yordam berish mumkin?



Yaxshilik izlagan bola

Kechki ovqat mahali edi. - Bolalar, qo'lingizni yuving , dadarigiz keldi, - dedi ona . Ota uyga kirar kan , bolalarining peshonasidan o‘pdi: Rasmni izohlang - Ko'cha biram sovuq , shamol ko‘z ochirgani qo'ymayapti, - dedi paltosini yechayotib . – Tepa qavatdagi qo'shnining mashinasi yo‘lda buzilib qolibd i. Rosa urindik , yurgiz olmadik . Oxiri shatakka olib , tortib keldim . Katta yaxshilik qildingiz , deb qayta -qayta duo qildi. O‘zim ham yengil tortdim .Ular maza qilib ovqatlanishdi. Jamshid otasiga juda havas qildi.- Dada , men ham yaxshilik qilgim kelyapti, - dedi dadasiga yaqinroq surilib . – Xar xasha qilmay , odobli bo'lsang , yaxshilik qilgan bo'lasan . Ertaga buvingni ko'rishga boramiz .Bu ham yaxshilik , - tushuntirdi dadasi. Jamshid xursand bo‘lib ketdi. Ertalab uyg'onganida oyisi buvisi uchun somsa yopib qo‘yibdi. Somsalarni dasturxonga o‘rab olishdi. Ko'chaga chiqishganida qormaydalab yog‘ardi. Bekatga yaqinlashganlarida laylak qorga aylandi. Jamshid bekat yonida oppoq ,chiroyli mushukni ko'rib qoldi. - Oyi, anavi mushukchani qarang . Qorni och shekilli, biror narsa beraylik , - dedi. O‘g‘lining ko‘zlari javdirab turardi. Onasi darrov dasturxonga o'ralgan somsalardan bitta oldi-da , o‘g‘liga uzatdi. Jamshid judayam quvondi. Somsani chetroq joyga qo'ydi, mushukcha boshini ko'tarmay sorhsani yeya boshladi. Har zamonda u momiq dumchasini likillatib qo'yardi. Shu payt bekatga avtobus kelib to'xtadi. Unga chiqib olgan Jamshid ko‘zdan yo'qolguncha mushukchaga termilib qoldi. Sovuq havo endi unga ta’sir qilmayotgan edi.

shatakka olmoq - o‘zi yurolmaydigan transportni boshqa transportga tirkab olib yurish

shamol ko‘z ochirgani qo'ymadi - qattiq esayotgan shamol

Harflarning o'rnini to‘g‘ri joylashtirib, maqolni o‘qing.

**shiQ liqiginish maqilsa,**
**zoY liyozgini lasqim.**

Jamshidning qilgan yaxshiligini hikoyadan topib o'qing.

Hikoya uchun tuzilgan rejani davom ettiring.

Reja:

1. Kechki ovqat mahali.
2. ...
3. ...

Hikoyadan har bir rejaga mos qismni topib o'qing

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Hikoyaning mazmunini reja asosida gapirib bering. Ota-onangiz bilan birga qishda jonivorlarga qanday ko‘mak berishingiz mumkinligi haqida kichik taqdimot tayyorlang.

**O‘IBDO‘:** ____________________ _____________ ____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Do'stlik  yo‘lagi .Rivoyat**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Harflarni kattalashib borish tartibida o'qing.

Yashiringan so‘z birikmasi  haqida nima deya olasiz?




Do‘stlik yo’lagi

(Hikoyat)

Bir shaharda  ikki qo'shni yashar ekan.  Qish  kelib, qalin qor yog‘a  boshlabdi.  Qo‘shnilardan  biri erta turib,  darvozasi oldidagi qorni  kurab,  katta yo‘l tomonga yo‘lak ochibdi.  Ishini tugatib qarasa, qo‘shnisi darvozasi oldidan yo‘lak ochib bo‘lgan  ekan.Shunda u:  “ Ertaga vaqtliroq  chiqib,  birinchi bolib yo'lak ochib qo'yaman” , deb ko‘nglidan o'tkazibdi.Tuni  bilan yana qor yog‘ibdi.  Haligi odam qorni birinchi  kuramoqchi  bo‘lib saharda turibdi-da, shosha-pisha  ko'chaga chiqibdi.  Ish boshlashdan oldin qo‘shnisi tomonga qarabdi. Qarasa,  qo'shnisining darvozasidan  katta yo‘l tomonga

yo'lak ochib bo‘lingan ekan. Qo'shnisining chaqqonligiga biroz g‘ashi kelibdi va ertasiga yana ham ertaroq chiqishga ahd qilibdi.Tuni bilan yana qalin qor yog‘ibdi. Haligi odam kunyorishmasidan ko‘chaga chiqib, shoshib ishni boshlabdi. Ish orasida qo'shnisi tarafga qarab qo‘yibdi, biroq hech nima ko'rinmabdi. U birinchi bo‘lganiga shubha qilmay ishni tugatibdi. Bu orada kun ham yorishibdi. So‘ng qarasa, ne ko‘z bilan ko'rsinki, qo'shnisining yo'lagi yana unikidan oldin tayyor bo‘lgan ekan. “Axir, qo‘shnim chiqqani yo‘q-ku, qachon yo'lak ochishga ulgurdi ekan?” deb rosa o‘ylabdi va buni uning o'zidan so‘ramoqchi bo‘libdi. Shu kuni ko‘chada qo'shnisini uchratib qolibdi va unga: - Qo‘shni, yo‘lakni qachon ochib ulgurasiz, kechasi bilan uxlamasdan qor kurab chiqasizmi, deyman?! - deb so‘rabdi. Qo'shnisi biroz o'ylanib turib:- Men umuman qorni kuramayman. Yo'lak esa uyimga kelib-ketadigan do'stlarim tufayli ochilib qoladi, - deb javob beribdi.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, yashiringan so'zlarni aniqlang. Maqolni o‘qing va mazmunini izohlang.

| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| ● | Q | R | SH | F | A |
| ■ | T | I | H | E | S |
| ▲ | N | M | U | V | Y |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ● 1 | ■ 2 | ● 3 | | ■ 5 | ■ 4 | ● 2 | ■ 1 | ● 5 | ● 3 | ▲ 4 | ■ 2 | ● 3 |
| | | | | | | | | | | | | |

Bo‘g‘inlardan tez aytishni hosil qiling. Tez aytish musobaqasini o'tkazing.







**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Do'stlik haqida biror hikoya yoki ertak topib o‘qing. Mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ____________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Xush kelibsan, Yangi yil. Abdulla Oripov.**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| **№** | **Bo‘limlar** | **Vaqti** |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, tarjimon va jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyatida tavallud topgan.
Shoirning birinchi she’riy to'plami “Mitti yulduz” nomi bilan 1963-yilda nashr etilgan. U ko‘plab asarlar yaratgan, jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Oripov 0 ‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining muallifidir.



Taqvimdagi ayrim sanalar nima sababdan boshqa rangda berilganini bilasizmi?



Xush kelibsan, Yangi yil

Abdulla Oripov

Yana kelding hadyaga to'lib,
Kutmoqdaydik seni intizor.
Qadamingdan minnatdor bo'lib,
Zarra-zarra to‘kiladi qor.
Xafamasmiz, bobo, yildan ham,
Quvontirdi u bizni, - qancha
Konfetini ko‘rishdik baham
Va qo’shiqlar o’rgandik ancha

Seni aslo unutmagay dil,
Xayr endi, xayr, Yil bobo.
Simobdayin tipirlar ko'ngil,
Yangi yilga endi marhabo!
Bog‘chalarga emaklab oz-oz
Yana kelar yangi qismimiz.
Ulg'ayadi yoshimiz biroz,
O‘zgarmaydi ammo ismimiz.

She’rdan quyidagi so‘zlarga ma’nodosh so'zlarni topib yozing:
sovg‘a - shodlantirdi - odim -ko‘p- mushtoq - norm - ... .
She’rni ifodali o'qing.
She’rdagi qofiyadosh so'zlarni toping

Bo‘g‘inlami bog'lab, so‘zlarni hosil qiling va she’rdan
shu so‘z ishtirok etgan misralarni o‘qing.




Adashgan so'zlarni aniqlang. She’r matnini to'g‘rilab o‘qing.

Yo‘l olamiz ko‘chaga qator
Bu yil yana ko‘p karra.
Shodlik yo‘li, do‘stlar, fazokor
Parvozidan ko‘p erur zarra.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** She’rni ifodali o‘qing va yod olin

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Bo‘lim yuzasidan takrorlash**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Berilgan parchalar darslik bolimidagi qaysi asarlardan olinganligini aniqlang va ularning davomini so'zlab bering.

Ko‘chaga chiqishganida qor maydalab yog‘ardi. Bekatga yaqinlashganlarida laylakqorga aylandi.

Tuni bilan yana qor yog‘ibdi. Haligi odam qorni birinchi kuramoqchi bo‘lib, saharda turibdi-da, shosha-pisha ko'chaga chiqibdi.

Negaki, qor ko‘p yog'sa, qirlarda bug‘doy yaxshi unarkan. Daryolarda suv ko'payarkan. Qurt-qumursqalar qorning ostiga kirib, sovuqdan jon saqlar ekan.

Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib , she’rni o'qing.

Dov-daraxtlar..
Izg‘irin y e l ....
Ko‘c h a la r ....
Yulduzlar....
Jamlab barcha ...,
Kelmoqda qish....

*Foydalanish uchun so‘zlar:mizg'igan, charaqlaydi, izg'igan, kuchini, yaraqlaydi, qo'shini.*

RIVOYAT nima?



“Rivoyat” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “hikoya qilmoq” degan ma’noni bildiradi. Rivoyat -voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba’zanuydirmalar vositasida, ba’zan esa real tasvirlovchi og‘zaki hikoya. Ko‘pincha rivoyat asosida voqelikva tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi.Axloqiy qarashlar asosida aytilgan rivoyatlar ham ko‘p. Rivoyatlar xalq tarixi hamda madaniyatini o‘rganishda muhim manbadir.

Har bir ustundan mos so'zni tanlab,
maqollarni hosil qiling.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qor | g'amini | kuzga | dori. |
| Qishning | yog'di | yozga | ye. |
| Qish | qori | don | yog'di. |
| Qishning | qahri | kuzda | baraka. |

Maqollarning mazmunini izohlang. Qish fasli haqida yana qanday maqollar bilasiz?

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Qish mavzusida kichik hikoya yozing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| **Sana:** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sinf:** | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-5**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**1-topshiriq — Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing va savollarga javob bering:**

**Matn:** *Ertalab Asal bog‘ga chiqdi. U daraxtlar orasida uchib yurgan qushlarni tomosha qildi. Qushlar shod-hursand uchib, o‘zlarining chiroyli qo‘shiqlarini yangradi. Asal daraxt tagida yotib, qushlar bilan vaqt o‘tkazdi. So‘ng uyiga qaytib, bugun ko‘rganlari haqida ota*-onasiga *aytdi.*

**Savollar**

**1) Matnda nechta gap bor?**

Javob: ____________

**2) Quyidagi gaplardan to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:**

A) Asal qushlarni tomosha qildi.

B) Asal uyiga qaytdi.

C) Qushlar chiroyli qo‘shiqlar yangradi.

D) Asal bog‘ga chiqdi.

Javob: ____________

**3) Quyidagi so‘zlardan ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lganini belgilang:**

a) ertalab — ___________
b) shod — ___________
c) chiroyli — ___________
Variantlar: quvonchli, go‘zal, tong, g‘amgin
**Javob:**
a) ___ b) ___ c) ___
**4-topshiriq — Matn bo‘yicha qisqacha yozing:**
*Matnda kim haqida va u nima qildi? (2–3 satr)*

---

---

---

**5-topshiriq — So‘z boyligini oshiramiz**

1. *“Tomosha” so‘ziga oxshash ma’nodagi so‘zni yozing:* ___________
2. *“Qushlar” so‘zidan yangi so‘z yasang:* ___________

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Qish mavzusida kichik hikoya yozing.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________
*(imzo)* *(sana)*

## 21- dars STO’